
Samarqand viloyati noyob va yo’qolib borayotgan umurtqali hayvonlar turlari kadastri bo’yicha qo’llanma nashr etildi

“O’zbekistonning Samarqand viloyati noyob va yo’qolib borayotgan umurtqali hayvonлar turlari kadastri (sudralib yuruvchilar, qushlar, sutemizuvchilar)” nashrdan chiqdi. O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti jamoasining ilmiy faoliyati natijasida tayyorlangan qo’llanma "EFFECT-D" nashriyot uyida chop qilindi.



Qo’llanma Samarqand viloyati noyob va yo’qolib borayotgan umurtqali hayvonlar turlari kadastr ma’lumotlariga bag’ishlangan. Unda 5 turdagi sudralib yuruvchilar, 47 turdagi qushlar va 13 turdagi sutemizuvchilarning zamonaviy maqomi, hududiy taqsimlanishi, uchrash biotoplarining holati, mavjud xavflar va ularni muhofaza qilishga doir tavsiyalar keltirilgan. Turlar tavsifi hayvonlar uchratilgan joylari xaritalari bilan birgalikda ishlangan. Ushbu qo’llanma zoolog mutaxassislar, ekologlar, ovshunoslar, talabalar, tabiatni muhofaza qilish xodimlari, shuningdek, Samarqand viloyati hududidagi noyob va yo’qolib ketayotgan hayvonlar muhofazasi va holatiga qiziquvchilar uchun mo’ljallangan.